XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING
QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2023 - yil 4 - avgust VI-66-86-8-110-K/23 Boysun tuman hokimligi

Boysun tumanidagi ayrim ko‘chalarning nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2023-yil 8-apreldagi 11-01/66-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 3-maydagi 07-18/2252-sonli yig‘ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 29-maydagi 08-03939-sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayonlarini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Boysun tumanidagi ayrim ko‘chalarning nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2023-yil 8-apreldagi 11-01/66-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 3-maydagi 07-18/2252-sonli yig‘ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 29-maydagi 08-03939-sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi

to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayonlari ma’qullansin.

2. Tumanda nomlari tasdiqlanayotgan ko‘chalarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (M.X.Jo‘rayev), tuman statistika bo‘limi (A.R.Saidov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari tasdiqlanayotgan ko‘chalarni, shuningdek, yangidan nomlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (F.T.Murtazoyev) nomlari tasdiqlanayotgan ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (M.T.Mirzayev), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.T.Jo‘rayev) hududlarda yangi nomlangan aholi punktlari tarkibiy qismlarining yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (Yu.Sh.Xoliyorov), “Boysun” gazetasi tahririyati mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.B.Bahovuddinov), Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.N.Tursunqulov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.Sh.Shukurov**

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2023-yil 4-avgustdagi
VI-66-86-8-110-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tumanda nomlari tasdiqlanayotgan ko‘chalarning ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Berk ko‘cha	Bibishirin MFY	Nomlanmagan	Shirinbuloq-1	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Berk ko‘cha	Bibishirin MFY	Nomlanmagan	Shirinbuloq -2	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Berk ko‘cha	Bibishirin MFY	Nomlanmagan	Shirinbuloq -3	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Berk ko‘cha	Pulhokim MFY, Dashtig‘oz MFY	Nomlanmagan	Nurlidiyor-1	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Berk ko‘cha	Kosiblar MFY	Nomlanmagan	Hidoyat	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
6.	Berk ko‘cha	Obi MFY, Kosiblar MFY	Nomlanmagan	Sarlochin	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
7.	Berk ko‘cha	Tillokamar MFY	Nomlanmagan	Chuqursoy	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
8.	Berk ko‘cha	Xo‘jabulg‘on MFY	Nomlanmagan	Qarg‘ali	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
9.	Berk ko‘cha	Avlod MFY, Hunarmandlar MFY	Nomlanmagan	Ulug‘vorlik-1	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
10.	Berk ko‘cha	Avlod MFY, Hunarmandlar MFY	Nomlanmagan	Ulug‘vorlik-2	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
11.	Berk ko‘cha	Avlod MFY, Hunarmandlar MFY	Nomlanmagan	Ulug‘vorlik-3	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
12.	Berk ko‘cha	Hunarmandlar MFY, Bog‘ibolo MFY, Chorchinor MFY	Nomlanmagan	Bog‘ot-1	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq

13.	Berk ko‘cha	Chorchinor MFY	Nomlanmagan	Kelajak sari-1	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
14.	Berk ko‘cha	Chorchinor MFY	Nomlanmagan	Kelajak sari-2	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
15.	Berk ko‘cha	Chorchinor MFY	Nomlanmagan	Tashabbuskorlar-1	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
16.	Berk ko‘cha	Chorchinor MFY	Nomlanmagan	Tashabbuskorlar-2	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
17.	Berk ko‘cha	Chorchinor MFY	Nomlanmagan	Tashabbuskorlar-3	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
18.	Tor ko‘cha	Kosiblar MFY	Nomlanmagan	Hidoyat	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
19.	Tor ko‘cha	Tillokamar MFY	Nomlanmagan	Chuqursoy	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq
20.	Tor ko‘cha	Hunarmandlar MFY, Bog‘ibolo MFY, Chorchinor MFY	Nomlanmagan	Bog‘ot	Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq